

## Termiz iqtisodiyot va servis universitetida “Tasviriy va amaliy san’at” to‘garagi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risidagi

### NIZOM

#### I. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom “Tasviriy va amaliy san’at” to‘garagi (keyingi o‘rinlarda – to‘garak) faoliyatini tashkil etish, boshqarish, ishtirokchilar huquq va majburiyatlarini belgilaydi.

2. To‘garak ta’lim muassasasi huzurida, o‘quvchilar (talabalar)ning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, estetik tarbiya berish, badiiy qobiliyatlarini rivojlantirish va milliy qadriyatlarni asrab-avaylash maqsadida tuziladi.

3. To‘garak o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari, ta’lim muassasasi ustavi va ushbu Nizomga amal qiladi.

#### II. To‘garakning maqsad va vazifalari

4. To‘garakning asosiy maqsadi — Termiz iqtisodiyot va servis universiteti talaba-yoshlarining amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish, iqtidorli, iste’dodli yoshlarni aniqlash, universitet hayotidagi ijtimoiy faolligini oshirish hamda yoshlarni vatanimiz, xalqimiz, milliy qadriyatlarimiz, tarixiy-ma’naviy merosimizga hurmat va sadoqatli qilib tarbiyalash, ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ijodiy salohiyati va ularning o‘z iqtidorlarini namoyish etishga ko‘maklashish, san’atga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish, rassomchilik va amaliy san’at sohalarida ko‘nikmalarini rivojlantirish, estetik tafakkurni va ijodkorlikni rag‘batlantirishdan iborat.

5. To‘garak vazifalari:

- o‘quvchi (talaba)larni milliy va jahon san’ati namunalaridan bahramand qilish;
- chizmachilik, rangtasvir, haykaltaroshlik, naqsh, amaliy bezak san’ati bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tkazish;
- ijodiy ko‘rgazmalar, tanlov va musobaqalarda ishtirok etish;
- to‘garak a‘zolarida estetik did va ijodiy tafakkurni shakllantirish.
- tasviriy va amaliy san’at sohalarida ijodiy ishlanmalar va ishlarini amalga oshirish.
- tasviriy va amaliy san’at asarlarining badiiy va estetik ahamiyatini o‘rganish.
- to‘garak a‘zolarining san’atga bo‘lgan qiziqishini oshirish va o‘zaro ijodiy hamkorlikni rivojlantirish.

- san'at asarlarini yaratish jarayonida talabalarni o'qitish, yangi uslublarni va texnikalarni o'rgatish.

### **III. To'garakni tashkil etish va boshqarish**

6. To'garak ta'lim muassasasi rahbarining buyrug'i asosida tashkil etiladi.

7. To'garak rahbari 1 o'quv yili davomida, shartnoma asosida universitet rahbariyati tomonidan tayinlanadi.

8. To'garak rahbari – san'at yo'nalishi bo'yicha malakali mutaxassis yoki pedagog tayinlanadi.

9. To'garak rahbari quyidagilarni amalga oshiradi:

- o'quv mashg'ulotlari rejasini ishlab chiqadi;

- a'zolari tanlash va hisobini yuritadi;

- ko'rgazma va tadbirlarni tashkil qiladi;

- faoliyat yuzasidan rahbariyatga hisobot beradi.

10. To'garak mashg'ulotlari haftasiga kamida 1–2 marotaba, o'quv reja asosida olib boriladi.

11. To'garak universitet bosh binosining 7-qavati, 706-xonada o'z faoliyatini olib boradi.

12. "Tasviriy va amaliy san'at" to'garagida ishtirok etish va kasb-hunar o'rganish 2 oylik muddatda amalga oshiriladi va talabalarga o'quv yakunida maxsus sertifikat topshiriladi.

13. Yaratilgan asarlarni ko'rsatish uchun yillik yoki mavsumiy ko'rgazmalarni tashkil etish.

### **IV. To'garak a'zolari huquq va majburiyatlari**

14. To'garak a'zosi bo'lish huquqiga badiiy ijodga qiziqadigan barcha talabalar ega.

15. To'garak a'zolarining huquqlari:

- mashg'ulotlarda muntazam qatnashish;

- ijodiy ishlari bilan ko'rgazmalarda ishtirok etish;

- o'z ijodiy tashabbuslarini ilgari surish;

- tanlov va ko'riklarda qatnashish.

16. To'garak a'zolarining majburiyatlari:

- mashg'ulotlarda intizomli ishtirok etish;

- berilgan topshiriqlarni bajarish;

- to'garak mulki va jihozlariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish;

- o'z ishlarida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga amal qilish;

- mashg'ulotlarga qatnashish jarayonida dars mashg'ulotlaridan qolib ketmaslik.

### **V. Moliyaviy va moddiy ta'minot**

17. To'garak faoliyati ta'lim muassasasi mablag'lari, homiylik va grantlar hisobiga ta'minlanadi.

18. Mashg'ulotlar uchun zarur bo'lgan badiiy materiallar, asbob-uskuna va jihozlar ta'lim muassasasi tomonidan xarid qilinadi yoki homiylik asosida taqdim etiladi.


#### **VI. Yakunlovchi qoidalar**

19. Ushbu Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar ta'lim muassasasi kengashi qarori bilan kiritilishi mumkin.

20. To'garak faoliyati samaradorligi har o'quv yilida tahlil qilinadi va zaruratga ko'ra faoliyat yo'nalishlari yangilanadi.

Termiz iqtisodiyot va servis universitetining  
2025 yil " 15. " sentyabrda  
" 316. " -son buyrug'iga 2-ilova


Termiz iqtisodiyot va servis universitetida tashkil etiladigan "Tasviriy va amaliy san'at" to'garagini muvaffaqiyatli tamomlagan  
talaba-yoshlarga beriladigan sertifikat  
NAMUNASI



Resin artyo'nalishidagi qitidori niyuksak mahorat bilan namoyon etib, turli asarlar ni yaratishda izlanuvchanligirang uyg'unligiva dizaynda mahorati, ijodiy ishlardamas'uliyatibamda to'garak mashg'ulotlarin faol tamomlagani uchun

**SERTIFIKAT**

bilan taqdirlanadi.



Rektor:

A. E. Absamatov